

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[Orcid: 0009-0006-2728-9264](https://orcid.org/0009-0006-2728-9264)

E-mail: tukhtasinovzafar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hamda institutsional omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududiy bandlik, moliyaviy resurslardan foydalanish, infratuzilma holati, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va mahalliy boshqaruv institutlarining roli baholanadi. Natijada hududiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiluvchi kompleks taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: mahalla, mahallalarda tadbirkorlik, hunarmandchilik, tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarish.

Аннотация. В данной статье системно анализируются социально-экономические и институциональные факторы, влияющие на развитие предпринимательства и ремесленничества в махаллях Ферганская область. В исследовании оцениваются уровень занятости населения, использование финансовых ресурсов, состояние инфраструктуры, механизмы государственной поддержки и роль институтов местного самоуправления. В результате разработаны комплексные предложения и рекомендации, направленные на ускорение регионального развития.

Ключевые слова: махалля, предпринимательство в махаллях, ремесленничество, управление развитием предпринимательства.

Annotation. This article systematically analyzes the socio-economic and institutional factors influencing the development of entrepreneurship and handicrafts in the mahallas of Fergana Region. The study evaluates regional employment, the use of financial resources, infrastructure conditions, state support mechanisms, and the role of local governance institutions. As a result, comprehensive proposals and recommendations aimed at accelerating regional development are developed.

Keywords: mahalla, entrepreneurship in mahallas, handicrafts, management of entrepreneurship development.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish mamlakatlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish imkoniyati kengaymoqda. Bu jarayonda mahalla institutining joylardagi iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi o'rni tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy darajada tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, hunarmandchilik an'analari tiklash va ularni zamonaviy bozor talablariga moslashtirishga qaratilgan. "Mahallabay ishlash" tamoyilining joriy etilishi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari hamda hunarmandlarga berilgan soliq va moliyaviy imtiyozlar mahallalarda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amalda mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar har doim ham mahallalar salohiyatini to'liq ishga solish imkonini bermayapti.

Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, u aholi o'rtasida o'z-o'zini band qilish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq ushbu sohani ilmiy jihatdan asoslangan holda rivojlantirish, mahalliy infratuzilma, moliyaviy resurslar va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tahlil qilish zarur [1].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, nazariy asoslari hamda uning hududiy xususiyatlari bo'yicha MDH olimlaridan Леонид Иванович Абалкин, Д. В. Ходос, Г. С. Сеялова, Вадим Валерьевич Радаев, В. М. Власова, А. М. Самозкин, В. Г. Гутман, И. А. Родионова, В. Г. Мединский, Л. Г. Шаршукова va A. B. Бусыгин ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari — M. Sharifxo'jayev, S. S. G'ulomov, Yo. Abdullayev, B. Yu. Xodiyev, M. S. Qosimova, Sh. N. Zaynutdinov, A. Sh. Bekmurodov, J. Kambarov, N. X. Jumayev, D. N. Raximova, N. Q. Yo'ldoshev, A. G'ofurov, M. R. Boltabayev, B. K. G'oyibnazarov, N. M. Maxmudov, S. K. Salayev, Sh. Ergashxodjayeva, U. V. Gafurov, D. A. Artiqova, D. S. Alimatova, M. M. Ibragimov, O. Kazakov, K. Kurpayanidi va M. Ashurovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ularni rivojlantirish xususiyatlari tadqiq etilgan. Biroq mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish omillari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, institutsional iqtisodiyot vakillari tadbirkorlik muhitining shakllanishida davlat siyosati, huquqiy baza va moliyaviy institutlarning rolini alohida ta'kidlaydilar. Hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar esa ko'proq madaniy merosni saqlash, bandlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish bilan bog'liq holda o'rganilgan. Biroq mahalla darajasida ushbu omillarni kompleks baholash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik taqqoslash, so'rovnoma usuli va ekonometrik yondashuvlardan foydalanildi. Farg'ona viloyatining turli mahallalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va hunarmandlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar asosida omillar ta'siri korrelyatsion va regressiya usullari orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng zich yashovchi, iqtisodiy va madaniy jihatdan serqirra hududlaridan biri hisoblanib, kichik va o'rta biznes hamda an'anaviy hunarmandchilik rivojlangan uchta hudud — Namangan viloyati, Andijon viloyati va Farg'ona viloyatidan iborat.

Farg'ona vodiysi hunarmandchiligining jonlanishi avvallari Shahrixon pichoqchiligi, Chust pichoqchiligi va boshqa an'anaviy yo'nalishlar asosida kechgan. Ushbu hududda 2017-yildagi Prezident farmoni bilan hunarmandlarga keng imkoniyatlar yaratildi — yer, binolar, imtiyozli kreditlar, savdo-sotiq va eksport imkoniyatlari kengaytirildi [13].

Hunarmandchilikni rivojlantirish chora-tadbirlarida mahalla aholisi, xususan, ayollar, kam ta'minlangan aholi qatlamlari va yoshlarni faol jalb qilish belgilangan. "Usta-shogird" maktablari tashkil etilib, hunarmandlarni uyushmalarga integratsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Farg'ona vodiysi mahallalarida tadbirkorlik va hunarmandchilikning rivojlanishi iqtisodiy va madaniy salohiyatni uyg'unlashtirish orqali uzluksiz o'sishga yo'l ochmoqda. Mahalla qo'llab-quvvatlashi, imtiyozli kreditlar, logistika infratuzilmasi, usta-shogird yo'nalishlari va turizm mexanizmlari asosida ushbu soha kengaymoqda. Natijada iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy hayot sifati, ish o'rinlari va eksport salohiyati sezilarli darajada oshmoqda (1-jadval).



1-jadval

Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar (dehqon, fermer xo'jaliklarisiz) soni to'g'risida ma'lumot

Nomi	Jami	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turdagi xizmatlar
Jami	34302	1237	5615	2061	11641	1339	1850	548	1220	8791
Oltiariq tumani	1962	72	246	98	596	342	118	32	57	401
Qo'shtepa tumani	1260	84	216	59	443	36	54	22	44	302
Bag'dod tumani	1316	62	261	80	389	20	93	17	34	360
Buvayda tumani	1354	42	206	50	536	28	44	33	63	352
Beshariq tumani	1212	90	149	36	398	39	38	7	58	397
Quva tumani	1524	74	240	80	522	41	82	27	51	407
Uchko'prik tumani	1744	49	449	115	635	44	60	12	54	326
Rishton tumani	1503	35	279	77	449	27	123	35	43	435
So'x tumani	983	102	157	56	372	24	29	7	26	210
Toshloq tumani	1388	61	234	96	490	54	62	24	50	317
O'zbekiston tumani	1518	46	333	41	505	48	79	8	49	409
Farg'ona tumani	1558	98	190	95	547	46	88	9	73	412
Dang'ara tumani	1450	72	314	66	512	41	66	7	38	334
Furqat tumani	896	33	155	43	315	19	48	6	33	244
Yozyovon tumani	1200	88	186	85	487	20	40	6	27	261
Farg'ona shahar	6057	100	652	589	1658	244	487	180	286	1861
Qo'qon shahar	3511	30	648	177	1300	141	156	60	142	857
Quvasoy shahar	1227	80	157	69	500	54	66	8	15	278
Marg'ilon shahar	2639	19	543	149	987	71	117	48	77	628

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida dehqon va fermer xo'jaliklarisiz ro'yxatga olingan xo'jalik subyektlari soni 63 946 tani tashkil etdi. Shundan 34 302 tasi faoliyat yuritayotgan, qolgan 29 644 tasi



esa iqtisodiy faol bo'lmagan subyektlardir. Bu holat — umumiy subyektlarning 46,3 foizi — iqtisodiy muhitdagi muammolar, moliyaviy cheklovlar yoki tartibga solish yuklari bilan bog'liq. Yil boshidan 6 153 ta yangi subyekt tashkil etilgan, 2 808 tasi tugatilgan bo'lib, ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilmoqda.

Farg'ona shahri, Marg'ilon, Qo'qon, Oltiariq tumani va Uchko'prik tumani iqtisodiy faolligi yuqori hududlar sirasiga kiradi. Biroq ayrim tumanlarda, xususan, Dang'ara tumani va Toshloq tumanida faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar ulushi yuqorilgicha qolmoqda. Bu esa mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va barqaror biznes muhitini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra dehqon va fermer xo'jaliklarisiz faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 34 302 tani tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich viloyatdagi kichik biznes va tadbirkorlik sektorining yuqori darajada faol ekanligini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, faoliyat turlari bo'yicha eng katta ulush savdo sohasiga to'g'ri keladi — 11 641 ta subyekt yoki jami subyektlarning qariyb 34 foizi shu yo'nalishda faoliyat yuritmoqda. Bu holat Farg'ona viloyati iqtisodiy tizimida savdo faoliyatining yetakchi sektor ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, sanoat (5 615 ta subyekt), boshqa turdagi xizmatlar (8 791 ta), qurilish (2 061 ta) va yashash hamda ovqatlanish xizmatlari (1 850 ta) sohalarida ham salmoqli o'rin tutmoqda.

Hududlar kesimida Farg'ona shahri eng ko'p faol subyektga ega bo'lib, jami 6 057 ta korxonalar bu yerda faoliyat yuritmoqda. Ushbu subyektlarning asosiy qismi savdo (1 658 ta), sanoat (652 ta) va boshqa xizmatlar (1 861 ta) sohalarida to'plangan. Bu ko'rsatkich Farg'ona shahri markaziy iqtisodiy hudud sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sektori, ayniqsa yashash va ovqatlanish (487 ta) hamda axborot va aloqa (180 ta) sohalarining ham jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ikkinchi o'rinda Qo'qon shahri (3 511 ta subyekt) turadi. Qo'qonda ham savdo eng ko'p rivojlangan yo'nalish bo'lib (1 300 ta), undan so'ng sanoat (648 ta) va boshqa xizmatlar (857 ta) keladi. Marg'ilon shahri ham yuqori iqtisodiy faollikka ega bo'lib, 2 639 ta subyekt faoliyat yuritmoqda. Bu shaharlar viloyat iqtisodiyoti va tadbirkorlik infratuzilmasining asosiy tayanch nuqtalari hisoblanadi.

Tumanlar kesimida esa eng faol hududlar qatorida Uchko'prik (1 744 ta), Farg'ona tumani (1 558 ta), O'zbekiston tumani (1 518 ta) va Quva tumani (1 524 ta) ajralib turadi. Uchko'prik tumanida sanoat sohasi (449 ta subyekt) va savdo (635 ta) asosiy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Quva va O'zbekiston tumanlarida esa xizmat ko'rsatish hamda qurilish sohalaridagi subyektlar nisbatan ko'proq. Bu tumanlarda iqtisodiy faoliyatning sektorial diversifikatsiyasi ko'zga tashlanadi. So'x tumani esa o'ziga xos iqtisodiy holatga ega: 983 ta subyekt faoliyat yuritadi, ular orasida qishloq xo'jaligi (102 ta) va savdo (372 ta) sohalariga e'tibor yuqori. Bu tuman geografik jihatdan chekka hudud bo'lishiga qaramay, iqtisodiy faollik mavjudligini ko'rsatadi.

Savdo sohasidagi subyektlar soni barcha tuman va shaharlar kesimida yetakchi o'rinda bo'lib, bu hududlarning bozor infratuzilmasi, logistika imkoniyatlari va ichki iste'mol talabining yuqorilgini ko'rsatadi. Sanoat sohasida esa ayniqsa Farg'ona shahri, Qo'qon, Marg'ilon va Uchko'prik tumani ajralib turadi. Qurilish sektori ham yirik shaharlarda nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlarda infratuzilmaviy rivojlanish davom etayotganini bildiradi. Yashash va ovqatlanish xizmatlari ham yirik urbanizatsiyalashgan hududlarda ko'proq rivojlangan bo'lib, bu hududlarning aholi zichligi, turizm salohiyati va savdo markazlariga yaqinligi bilan izohlanadi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatmayotgan xo'jalik subyektlari soni 29 644 tani tashkil etib, bu umumiy ro'yxatga olingan subyektlarning qariyb yarmiga teng. Bu holat kichik biznes barqarorligi bilan bog'liq muammolar mavjudligini anglatadi. Faoliyatsiz subyektlarning eng katta qismi savdo (35,6 foiz), sanoat va qurilish sohalariga to'g'ri keladi. Bu esa raqobatning kuchayishi, moliyaviy bosimlar va bozor talabining pasayishi kabi omillar bilan izohlanadi (2-jadval).



2-jadval

Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga yil boshidan yangi tashkil etilgan subyektlar (dehqon, fermer xo'jaliklarisiz) soni to'g'risida ma'lumot

Nomi	Jami	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turdagi xizmatlar
Jami	6153	448	1242	245	2604	191	386	169	188	680
Oltiariq tumani	355	18	58	12	128	53	27	17	17	25
Qo'shtepa tumani	290	30	88	10	95	7	14	8	9	29
Bag'dod tumani	247	12	70	18	85	2	20	1	9	30
Buvayda tumani	257	23	51	4	134	4	8		11	22
Beshariq tumani	261	49	36	1	121	6	8	3	10	27
Quva tumani	287	54	62	11	100	7	14	9	10	20
Uchko'prik tumani	283	19	75	13	124	8	12	5	4	23
Rishton tumani	312	15	80	14	126	2	25	11	6	33
So'x tumani	152	9	31	2	84	1	1	3	5	16
Toshloq tumani	250	20	66	5	100	10	14	5	7	23
O'zbekiston tumani	257	13	78	4	94	2	28	4	9	25
Farg'ona tumani	258	30	52	7	96	8	25	3	10	27
Dang'ara tumani	196	7	47	6	88	5	7	4	4	28
Furqat tumani	180	15	59	5	67	4	11	2	4	13
Yozyovon tumani	331	39	29	16	210	3	9	1	5	19
Farg'ona shahar	1013	47	114	71	376	36	100	43	33	193
Qo'qon shahar	521	5	94	22	254	18	20	20	22	66
Quvasoy shahar	279	40	44	9	125	5	21	6	3	26
Marg'ilon shahar	424	3	108	15	197	10	22	24	10	35

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon va Quvasoy shaharlarida faoliyatini to'xtatgan subyektlar soni nisbatan yuqori bo'lib, ayniqsa savdo va sanoat sohalarida bunday holatlar ko'p uchraydi. Tumanlar orasida Buvayda tumani, Dang'ara tumani, Toshloq tumani, O'zbekiston tumani va Uchko'prik



tumanida iqtisodiy faollikning pastligi kuzatilmoqda. Bu holat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, So'x tumani va Yozyovon tumani nisbatan barqaror hududlar sifatida ajralib turadi.

Yangi tashkil etilgan subyektlar soni bo'yicha Farg'ona shahri yetakchilik qilib, 1 013 ta yangi biznes subyekti tashkil etilgan. Ularning asosiy qismi savdo, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslariga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Qo'qon (521 ta), Marg'ilon (424 ta) va Quvasoy (279 ta) shaharlari joylashgan bo'lib, bu hududlarda urbanizatsiya, infratuzilma va bozor imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Tumanlar ichida eng yuqori o'sish Yozyovon tumanida kuzatilib, 331 ta yangi subyekt tashkil etilgan. Shuningdek, Oltiariq tumani, Uchko'prik, Quva tumani va Rishton tumanida ham iqtisodiy faollik yuqori. Bu hududlarda qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarining uyg'un rivojlanishi kuzatiladi. Masalan, Quva tumanida yangi subyektlarning sezilarli qismi qishloq xo'jaligi va sanoat sohaslariga to'g'ri keladi.

Sohalar kesimida sanoat yo'nalishida Farg'ona shahri, Marg'ilon, Qo'qon va Rishton yetakchi bo'lsa, qurilish hamda axborot texnologiyalari asosan shaharlarda jamlangan. Bu esa iqtisodiy faollikning hududiy konsratsiyasini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik sohasi tahlili esa Rishton tumani misolida barqaror o'sishni namoyon qiladi. 2020-yilda 636 nafar bo'lgan a'zolar soni 2025-yilga kelib qariyb 1 000 nafarga yetgan. Ayniqsa, "Turaobod", "Istiqlol" va "Qozi-Ahror" mahallalarida yuqori o'sish qayd etilgan. Biroq ayrim mahallalarda hunarmandchilik faoliyati deyarli rivojlanmagan. Umuman olganda, mahalliy tashabbus va institutsional qo'llab-quvvatlash omillari hududiy iqtisodiy faollikni belgilab beruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar Farg'ona viloyati hududlarida tadbirkorlik va hunarmandchilik rivojlanishi notekis ekanligini ko'rsatdi. Xususan, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon kabi shaharlarda iqtisodiy faollik yuqori bo'lib, infratuzilma, bozor va investitsiya muhiti shakllangan. Biroq ayrim tumanlarda tadbirkorlik subyektlarining faoliyati past darajada saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, Rishton tumani misolida hunarmandchilikning barqaror o'sishi mahalliy tashabbus va an'anaviy ixtisoslashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi. Umuman olganda, iqtisodiy faollik darajasi infratuzilma, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, institutsional qo'llab-quvvatlash hamda aholining tadbirkorlik salohiyati bilan uzviy bog'liq ekani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S. S. G'ulomov. *Tadbirkorlik va kichik biznes*. – Toshkent, 2002. – 256 b.
2. B. Yu. Xodiyev, M. S. Qosimova va boshqalar. *Kichik biznesni boshqarish*. – Toshkent, 2003. – 258 b.
3. U. V. Gafurov. *Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi*. – Toshkent: O'zBMA, 2017. – 274 b.
4. D. S. Alimatova. *Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish: iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati* – Toshkent: TMI, 2018. – 77 b.
5. M. M. Ibragimova. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini tarkibiy o'zgarishlar asosida oshirish: iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent: TDIU, 2018. – 54 b.
6. Richard Cantillon. *Essai sur la Nature du Commerce en Général*. – 1755.
7. Jean-Baptiste Say. *Traité d'économie politique*. – 1803.
8. Joseph Alois Schumpeter. *The Theory of Economic Development*. – 1934.
9. Peter Drucker. *Innovation and Entrepreneurship*. – 1985.
10. Sh. Shodmonov, V. G'afurov. *Iqtisodiyot nazariyasi (darslik)*. – Toshkent, 2005. – 305-bet.
11. [World Bank – Developing Artisanal Livelihoods in Rural Pakistan Report](#)
12. [UZA – Farg'ona vodiysi hunarmandchiligi tarixidan](#)

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100